



ITALY



ITALY

## O'ZBEKISTONNING XORIY DAVLATLAR BILAN ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARDA ADABIYOT FANINING O'RNI (1950-1985 YILLAR MISOLIDA)

**Sarvar Axmedov**

Qarshi axborot texnologiyalar va menejmenti  
universiteti katta o'qituvchisi

**Ergasheva Marjona Xidirovna**

Qarshi axboot texnologiyalar va menejmenti  
universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13859925>

**Анотация:** Ushbu maqolada 1950-1985 yillarda madaniy hayotning bir qismi bo'lgan adabiyot sohasida O'zbekistonning Osiyo va Yevropa davlatlar bilan o'zaro madaniy aloqalardagi rivojlanishi, shuningdek, O'zbekiston sobiq Ittifoqning tarkibida bo'lgan davrda madaniy sohadagi xalqaro aloqalarda faol ishtirok etganligi manbalar asosida ko'rsatib berilgan.

**Калит сўзлар:** Xalqaro aloqalar, madaniy aloqalar, adabiyot, kitob festivali, "Kitob-tinchlik va taraqqiyot xizmatida", yozuvchilar, shoirlar, durdona asarlar, tarjima adabiyot, hikoya, qissa, roman, nasriy asarlar, she'riy asarlar.

O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalarining rivojlanishida adabiyot sohasidagi hamkorlik o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero, O'zbekiston sovet davlatining tarkibida bo'lgan davrda madaniy sohadagi xalqaro aloqalarda faol ishtirok etgan. Chunki, adabiyot sohasidagi hamkorlik davlatlar o'rtasidagi tinchlikni, do'stlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi"[1].

O'zbekiston sovet davlatining tarkibida bo'lishiga qaramasdan xalqaro madaniy munosabatlarda adabiyot sohasida bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirgan. Xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalar ular bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qilgan. O'zbekiston hamda xorijiy mamlakatlarda adabiyot va san'at arboblarning turli ijodiy uchrashuvlari o'tkazilgan. Bunday tadbirlarni tashkillashtirishda sovet davrida O'zbekiston faol ishtirok etgan. Respublikaning xorijiy mamlakatlar bilan madaniy hamkorligida ayniqsa, o'zbek adiblari asarlarini nashr etish muhim o'rin egallagan [1:25]. Germaniya, Chexiya, Slovakiya, Polsha hamda Bolgariya davlatlarida o'zbek yozuvchilaridan Sadridin Ayniy Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, O'tkir Hoshimov, Sergey Borodin, G'ofur G'ulom, Zulfiya kabi yozuvchilarining asarlari nashr etilgan [1:26]. O'z navbatida O'zbekistonda chet



ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

el yozuvchilari F. Shiller, G.Feyne, F.Rable, V.Gyugo, A.Duyuma, Stendal, Flober, M.Mopassan, M.Tven, J.London, Y. Fuchik va klassik namoyondalarining asarlari o'zbek tilida ko'p ming nusxali tirajda nashr qilindi. [1:26].

XX asrning 50-60 yillarda Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat, Hamza, H.Olimjon, R.Bobojon kabi o'zbek adiblarining yuzdan ortiq mumtoz va zamonaviy asarlari 40 ta xorijiy tillarga tarjima qilindi. Shuningdek, Zulfiya, A.Muxtor, R.Fayziy asarlari hind va urdu tillarida nashr etildi. [1:26].

O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtasida amalga oshirilgan xalqaro madaniy aloqalarning rivojlanishida O'zbekiston SSR rahbari Sharof Rashidovning xizmati katta bo'ldi. Uning davrida O'zbekiston-Hindiston munosabatlari rivojlandi, bir necha marta Hindistonga tashrif buyurdi, hind delegatsiyasini Toshkentda qabul qildi. Uning faol yordami bilan 1955 yil oxirida taniqli yozuvchi Abdulla Qahhor boshchiligidagi O'zbekiston san'at namoyandalari delegatsiyasi Hindistonda bo'ldi [3:73].

Shuningdek, Hindiston bilan bunday faol munosabatlar Sharof Rashidovning ijodida ham o'z aksini topdi. 1956 yili hind xalqining ozodlik uchun kurashiga bag'ishlangan "Kashmir qo'shig'i" qissasi nashrdan chiqdi [3:74].

1977 yilda Hindiston mustaqilligining 30 yilligiga tayyorgarlik munosabati bilan hind shoirlarining o'zbek va hind xalqlari do'stligiga, O'zbekiston SSR tarixi va madaniyatiga bag'ishlangan 60 ta asardan iborat to'plamni yosh hindshunoslar tomonidan tayyorlandi hamda nashr etildi. [2:34] Zulfiya va boshqa mashhur shoirlar – Ramz Bobojon, Mirmuhsin va boshqalar Hindistonga atab she'rlar va dostonlar yaratishdi [2:35].

O'zbekistonda Sovet-Hindiston do'stlik jamiyati faoliyat yuritgan hamda mazkur jamiyatning O'zbekiston bo'limi ijroiya komitetiga O'zbekiston xalq shoirasi, respublika Hamza nomli mukofoti, Javoharlal Neru nomli va "Nilufar" xalqaro mukofotlari laureati Zulfiya Isroilova raisa sifatida boshchilik qilgan. Davlatlar o'rtasida olib borilgan mazkur madaniy sohadagi hamkorlik ikki xalqning yaqinlashuviga xizmat qilgan. [2:33]

Sovet davrida O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan ham adabiyot sohasida xalqaro aloqalari rivojlangan. Jumladan, o'zbek teatr sahnalarida F.Shillerning "Makr va muhabbat", "Qaroqchilar", Gyotening "Faust", B.Brextning "Sariq chaqalik opera" pyesalari namoyish etildi. Germaniya teatr sahnalarida esa A.Qahhorning "Shohi so'zana", S.Solovev va V.Vitkovichlarning "Nasriddin Buxoroda" dramalari ijro etildi.





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

1961 yil oktabr-noyabr oylarda Polsha Xalq Respublikasida O'zbekiston madaniyat dekadasi o'tkazildi - bu O'zbekiston uchun bag'ishlangan chet eldagi birinchi yirik tadbir edi. Bu tadbir ikki davlat o'rtasida madaniy aloqalarning rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etdi.

1966 yil iyunda Bolgariyada ham shunday dekada o'tkazilgan bo'lsa, 1966 yil sentabrda esa O'zbekistonda ham Bolgariya dekadasi bo'lib o'tdi. O'zbekistonning shahar va qishloqlarida bolgar qo'shiqlari yangradi. Bu aloqalarda albatta, O'zbekiston bilan Bolgariya davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonning adabiyot sohasida Osiyo va Afrika davlatlari bilan aloqalarining rivojlanishida 1974 yilda tashkil etilgan "Progress" nashriyotining Toshkent filiali o'zbek yozuvchilarining eng yaxshi asarlarini Osiyo va Afrika mamlakatlarida keng targ'ib qilish borasida katta ishlar amalga oshirganligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, 1978-1982 yillarda nashr etilgan pushtu, dari va fors tillarida jami 214 ming nusxaga yaqin 33 ta kitob nashr etilgan. Bu kitoblar qatorida O'zbekiston yozuvchi va shoirlarining: H.Olimjonning "Lirika", G.G'ulomning "Yovuz", X.G'ulomning "Nur", R.Fayziyning "Hazrati inson", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", M.Sheverdinning "Yengilmas Sanjar", shuningdek, "O'zbek xalq ertaklari" kabi asarlar nashr etilgan.

1983 yilda Moskvada xalqaro kitob ko'rgazmasi ochildi. "Kitob - tinchlik va taraqqiyot xizmatida" degan shior ostida uyushtirilgan bu ko'rgazmada O'zbekiston yozuvchi va shoirlarining 700 nomdagi asarlari namoyish qilindi. Ko'rgazmada o'zbek yozuvchilari yaratgan va ingliz, arab, fors, dari, hind, urdu tillarida nashr etilgan asarlari hammaning e'tiborini o'ziga jalb etdi. Bu asarlar Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya, GDR, Afg'oniston, Vyetnam, Fransiya, Angliya, Kanada, Jazoir, Avstraliya, Hindiston, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda tarjima qilinib nashrdan chiqarildi. Masalan, GDRdagi "Folk und velt" nashriyoti o'zbek yozuvchisi Temur Po'latovning "Do'nan qaysarning ko'rgan-kechirganlari" romanini chop etdi. Marselda (Fransiya) chiqadigan "Syud" jurnali 1983 yilda sovet poeziyasi anatologiyasini e'lon qildi. O'zbek shoirlarining she'rlari bu anatologiyadan o'rin oldi. [3:11].

1986 yil aprel oyida O'zbekistonda Makedoniyaning madaniyat kunlari bo'lib o'tdi hamda unda xorijiy yozuvchilar O'zbekiston diyorida mehmon bo'lishdi. Shuningdek, Makedoniyada ham O'zbekiston SSR madaniyat kunlari tashkil etildi. Unda o'zbek shoirlari va adabiyot namoyondalari ishtirok etdi. [1:26].







ITALY



ITALY

O'zbekiston va xorijiy davlatlar o'rtasida badiiy adabiyotlarni tarjima qilish, kitob almashish kabi madaniy aloqalarning shakllari ham rivojlangan. O'zbekistonda mumtoz va zamonaviy ilg'or xorijiy adabiyotning ko'plab asarlari tarjima qilingan. O'zbek kitobxonlari Yevropa va Amerikadan yozuvchilari V.Shekspir, A.Dyuma, L.Aragon, T.Drayzer, Shiller, G.Xeyne, Bayron, J.Vern, D.London, E.Xeminguey, Y.Fyuchik, V.Gyugo, I.Vazov kabi yozuvchilarning asarlarini tarjima qildi. Mazkur tarjimalarda G'afur G'ulom, Uyg'un, Shayxzoda kabi taniqli o'zbek adiblarining xizmatlari beqiyosdir.

Tarjima badiiy adabiyot o'zbek kitobxonlarini Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi ilg'or yozuvchilar ijodi bilan yaqindan tanishishga yordam berdi. Hind adabiyoti durdonasi Rabindranat Tagorning sakkiz jildlik "Tanlangan asarlar"i, hindistonlik Premchand, pokistonlik Faiz Ahmad Faiz, afg'on Sulaymon Layek, misrlik Yusuf As-Sibayning roman, qissa, she'r va hikoyalar to'plamlari, o'zbek tilida nashr etilgan nigeriyalik yozuvchi Chinua Acheba, jazoirlik yozuvchi Asiya Jabbor va boshqa ko'plab yozuvchi va shoirlarning o'lmas asarlari davlat va shaxsiy kutubxonalardan munosib o'rin egalladi.

XX asrning 80-yillarida o'zbek tilida faqat G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti tomonidan Sharq yozuvchilarining 100 dan ortiq asarlari, jumladan, eronlik Tuame Farma G'aybning "Besh ovoz" asari nashr etilgan. Bozorg Alaviyning "Chamodan", turkiyalik Rashid Nuri Guntekinni "Yashil tun", shuningdek, "Sharq xalqlari ertaklari" to'plamini, 1976 yilda mazkur nashriyot "Qo'l berib ko'rishish" nomi bilan she'riy va nasriy to'plamni nashr etdi. Mazkur tuplamga Osiyo va Afrikadan 60 nafar ga yaqin yozuvchi va shoirlar jumladan, jazoirlik Kateb Yasin, angolalik shoir Agostinyo Neto, keniyalik Jeyms Ngugi, iroqlik shoir Muhammad Mehdi al-Javahiri, nigeriyalik Chinua Acheba kabi yozuvchilar kiritilgan.

1981-1982 yillar G'.G'ulom nomidagi nashriyotda afg'on inqilobiy shoiri Sulaymon Layekning "Tong qo'shiqlari" she'riy to'plami, uning vatandoshi Asadulla Habibning "Oydin" umumiy nomi bilan hikoya va hikoyalari nashr etildi. Hind adibi B.Varmaning "Sarspazlar" hikoyalar jamlanmasi va Sharq adiblari ijodidan parchalar ushbu nashriyotda chop etilgan "Qiziqarli hikoyalar kitobi" to'plami ham kitobxonlar e'tiborini tortdi [7].

G'ofur G'ulom nashriyoti 1983 yilda "Tirik xotira" nomli to'plamni chop etib, yigirma beshta Afro-Osiyo davlati: Yaponiya, Mo'g'uliston, Vyetnam, Hindistondan qirq besh nafar yozuvchining ijodi taqdim etildi. Ushbu to'plamdan tashqari 1983-1984 yillar boshida Vyetnam yozuvchilarining "Muhabbat satrlari", yapon yozuvchilarining "Qora yomg'ir" hikoyalar to'plam va



romanlari bilan tanishtirdi. Turk yozuvchisi F.Baykurtning “Iraajiy qismati”, shuningdek, zamonaviy afg‘on shoiri G‘ulom Dastagir Panjshiriyning “Zindan xabarchi” she‘rlar kitobi nashr etildi [7].

1983 yilda “Raduga” nomini o‘zgartirgan “Progress” nashriyotining Toshkentdagi filiali o‘zbek yozuvchilarining hind, urdu, fors, dari va arab tillarida 26 nomdagi kitobni nashr ettirdi, ularning umumiy tiraji 116 ming nusxadan oshdi. Bu bo‘lim tomonidan nashr etilgan kitoblar qatorida, masalan, o‘zbek adiblardan: S.Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi”, A.Qahhorning “Hikoyalar”, Sh.Rashidovning “Bo‘rondan ham kuchli” asarlarini ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga nashriyot bo‘limi o‘zbek kitobxonlarini chet el yozuvchilarining hindistonlik J.Chandraning “O‘z yer egasi yo‘q”, B.Saxniyning “Otalar uyi derazalari”, eronlik M.Didevarning “Ertak va mo‘jiza” asarlari bilan tanishtirdi [7].

Xulosa qilib aytganda, sovet davrida O‘zbekistonning adabiyot sohasida olib borgan xalqaro aloqalari davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlanishiga, xalqlar o‘rtasida tinchlik g‘oyalarning shakllanishiga xizmat qildi. Bu jarayonda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida sovet davrida amalga oshirilgan keng qamrovli madaniy aloqalar jarayonida qo‘lga kiritilgan ijobiy tajribalar ham o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega.

#### **Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:**

1. Бабаходжаев М.А. Узбекистан в экономическом и культурном сотрудничестве СССР с зарубежнъм странами. – Тошкент, 1984.
2. Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. // Халқ сўзи, 2018 йил 20-сон. Б.1.
- 3.Тўхтаҳўжаева И. Совет Ўзбекистонинг халқаро алоқалари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б.11.
- 4.Тўхтаҳўжаева И. Ўзбекистон жамоатчилигининг чет эллар билан алоқалари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б.33.
5. Холмуродов Р. Ўзбекистоннинг чет мамлакатлар билан маданий алоқалари.// Ўзбекистон агитатор, 1967 йил 19-сон. Б.25.
- 6.Черниёзов А. Ўзбекистоннинг чет мамлакатлари билан маданий ҳамкорлиги.//Ўзбекистон агитатор, 1967 йил, 12-сон, Б.94.
- 7.Эргашев Ш. Эрк эстар кўнгил -Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б.73.

